



LEGAL FOUNDATIONS AND REGULATION OF THE CULTURE OF USING INTERNET INFORMATION RESOURCES IN NEW UZBEKISTAN

Nilufar Madumarova

Lecturer

Fergana State University

Fergana, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Internet, text, video, audio resources, audio lessons, website, chats, forums, software tools, cyber communication, Internet security, trainings, interactive services, animation, virtual laboratory.

Received: 11.02.26

Accepted: 12.02.26

Published: 13.02.26

Abstract: This article analyzes the legal foundations and regulatory mechanisms of the culture of using Internet information resources in the context of New Uzbekistan. It is well known that in the process of digital transformation, the expansion of the information space, along with ensuring citizens' rights to receive, disseminate, and use information, also creates the need to enhance their legal awareness and responsibility. Taking the above into account, the article provides a legal analysis of issues such as preventing offenses in the Internet space, ensuring cybersecurity, protecting personal data, and improving the culture of information security.

YANGI O'ZBEKISTONDA INTERNET AXBOROT RESURSLARIDAN FOYDALANISH MADANIYATINING HUQUQIY ASOSLARI VA TARTIBGA SOLINISHI

Nilufar Madumarova

O'qituvchi

Farg'ona davlat universiteti

Farg'ona, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Internet, matn, video, audio resurslar, audiodarslar, veb sayt, chatlar, forumlar dasturiy vositalar, kiber suhbat, internet xavfsizligi, treninglar, interaktiv xizmatlar, animatsiya, virtual laboratoriya.

Annotatsiya: Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida internet axborot resurslaridan foydalanish madaniyatining huquqiy asoslari va uni tartibga solish mexanizmlari tahlil qilingan. Ma'lumki,

raqamli transformatsiya jarayonida axborot makonining kengayishi fuqarolarning axborot olish, tarqatish va undan foydalanish huquqlarini ta'minlash bilan birga, ularning huquqiy ong va mas'uliyatini oshirish zaruratini ham yuzaga keltirmoqda. Yuqoridagilarni e'tiborga olib, maqolada internet makonida huquqbuzarliklarning oldini olish, kiberxavfsizlikni ta'minlash, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish hamda axborot xavfsizligi madaniyatini yuksaltirish masalalari huquqiy jihatdan tahlil qilingan.

ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ И РЕГУЛИРОВАНИЕ КУЛЬТУРЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРНЕТ-ИНФОРМАЦИОННЫХ РЕСУРСОВ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Нилуфар Мадумарова

Преподаватель

Ферганский государственный университет

Фергана, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Интернет, текстовые, видео- и аудиоресурсы, аудиоуроки, веб-сайт, чаты, форумы, программные средства, киберобщение, интернет-безопасность, тренинги, интерактивные услуги, анимация, виртуальная лаборатория.

Аннотация: В данной статье проанализированы правовые основы и механизмы регулирования культуры использования интернет-информационных ресурсов в условиях Нового Узбекистана. Известно, что в процессе цифровой трансформации расширение информационного пространства наряду с обеспечением прав граждан на получение, распространение и использование информации также порождает необходимость повышения их правосознания и ответственности. С учётом вышеизложенного в статье с правовой точки зрения рассмотрены вопросы предупреждения правонарушений в интернет-пространстве, обеспечения кибербезопасности, защиты персональных данных и повышения культуры информационной безопасности.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etishda mavjud gipermatn, gipermedia, videotasvir, grafika, animatsiya, ovoz va boshqa veb dasturlaridan foydalanish katta samara bermoqda. To'plagan tajribalar tahlil qilinganda axborot

kommunikatsiya-texnologiyalarining dasturiy vositalari o'qitishda yangi sifat vositalari o'quv jarayonini jadallashtirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'lib, an'anaviy o'qitish vositalaridan tubdan farq qiladi. Ta'lim resurslari asosida o'qitish jarayonida aniq fanlarni kompyuter texnikalar asosida to'liq o'qitish, ma'ruza matnlarini tahrir qilish, o'quvchilarning topshirgan nazorat natijalarining tahlil qilish, o'quvchilarga ta'lim resurslari orqali dars o'tishi, eshitishi va mulohaza qilish imkoniyatlariga ega bo'ladi.

Ayni vaqtda yurtimizda yoshlarimizni turli xil noxolis ma'lumotlardan himoya qilish maqsadida "ZiyoNet" jamoat axborot ta'lim tarmog'i tashkil etilgan. Ular elektron axborot ta'lim resurslari va internet tarmog'i bilan ta'minlangan. Bu esa yoshlarning dunyoqarashini boyitishi, bilim olishi, zamonaviy bilimlar egasi bo'lishi imkonini bermoqda. Ta'lim tizimida elektron darsliklar, video va audiodarslar, interaktiv va animatsiyali virtual laboratoriya ishlari, testlar, ta'limiy o'yinlar boshqa qo'shimcha ta'lim resurslari yaratilgan. www.eduportal.uz axborot-ta'lim portaliga barcha yaratilgan elektron axborot-ta'lim resurslar joylashtirilgan. Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivoji – oddiy aloqadan tortib, to hamkorlikda ish olib borish qurilmalarigacha sifat jihatdan yangi pog'onaga ko'tarildi. Internet, elektron pochta, mobil telefonlar va kishilarning o'zaro muloqotini ancha tezlashtirdi va osonlashtirdi.

"XXI asr axborotlashtirish asrida ta'lim sohasini axborotlashtirish, har bir ta'lim muassasasida:

- o'qitish va o'qish jarayonining;
- ta'lim muassasasi boshqarilishining;
- ta'lim muassasasi bo'linmalarining;
- ta'lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi"[1, 14].

"Axborot sohasining tez o'sishi kompyuter yaratilishiga va jamiyatning shiddat bilan kompyuterlashuviga olib keldi. Yalpi axborotlashtirilgan tizimning vujudga kelishi xalqlar va butun insoniyat taqdirini bir-biriga bog'lab qo'ydi"[2, 206].

Hozirgi jamiyatni axborotlashtirish jarayonining asosiy yo'nalishlaridan biri ta'limni axborotlashtirishdir. Ta'limni axborotlashtirish – keng ma'noda ta'lim sohasini metodologiya, o'qitish maqsadlarining psixologik-pedagogik tadbig'iga yo'naltirilgan yangi axborot texnologiyalari vositalarini samarali foydalanish va yaratish (qayta ishlash) amaliyoti bilan ta'minlash sifatida qaraladi. Bundan tashqari, axborotlashtirish masofali o'qitish tizimining taraqqiyoti uchun baza bo'lib xizmat qiladi. Axborotlashtirish jarayonida ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalari vositalaridan keng ko'lamda foydalanish amalga oshiriladi.

“Axborot, kompyuterlashtirish, hisoblash texnikasi, axborot texnologiyasi, modellash, ma'lumotlar manbayi, dasturlashtirish, shaxsiy kompyuterlar, dastur bilan ta'minlash va boshqa shu kabi ilmiy tushunchalar jamiyatni axborotlashtirishning eng muhim xususiyatlarini ifoda etadi”[3, 10]. Ushbu jarayonning mantiqiy davomchisi va amaliy ko‘rinishi esa internet tarmog‘i bilan bevosita bog‘liqdir. Chunki internet axborotni yaratish, saqlash, qayta ishlash va uzatish imkoniyatlarini global miqyosga olib chiqdi.

Internet kompyuterlashtirish natijasida yuzaga kelgan texnologik infratuzilmani yagona axborot makoniga birlashtirib, turli ma'lumotlar manbalarini o‘zaro integratsiyalash imkonini beradi. Dasturlashtirish va dasturiy ta'minot vositalari orqali yaratilgan veb-platformalar, elektron xizmatlar, bulutli texnologiyalar va raqamli tizimlar jamiyat hayotining barcha sohalariga – ta'lim, iqtisodiyot, fan, boshqaruv va ijtimoiy munosabatlarga – chuqur kirib bordi.

Yanada soddaroq qilib aytadigan bo‘lsak, jahondagi kompyuterlararo o‘zaro aloqa o‘rnatib, turli xil ma'lumotlar almashinishga imkon beruvchi yagona tarmoqdir. Oddiy matn, video, audio resurslar, turli dasturlar va boshqa ma'lumotlar nihoyatda katta hajmda shu tarmoq orqali almashiniladi, uzatiladi va qabul qilinadi. Ma'lumot olish va uni tarqatishda hozirgi kunda internet tarmog‘i asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda.

Asosiy qism. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasi talablariga ko‘ra, qonunga xilof ravishda ijtimoiy ongga axborot vositasida ruhiy ta’sir ko‘rsatishga, uni chalg‘itishga yo‘l qo‘yilmaydi[4]. “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasida yoshlar orasida odob-axloqni buzishga, shu jumladan, hayosizlikni va shafqatsizlikni tashviqot qilishga qaratilgan har qanday xatti-harakat man etilishi belgilab qo‘yilgan. [5]. “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 16-moddasi talablariga ko‘ra, har bir voyaga yetmagan mushtariy ommaviy axborot vositalarida axloqiy va ma’naviy kamol topishiga ziyon yetkazmaydigan axborot olish huquqiga ega.

Hozirgi kunda Internetsiz axborot erkinligini amalga oshirish qiyin, bu esa insonning asosiy huquqi sifatida Internetga kirish muammosini yanada kuchaytiradi. Texnologiya neytral, lekin uni qo'llash va ta'siri real ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga bog'liq. Internetga bo'lgan huquq va erkinliklarning tengligi tamoyili haqida gapirganda, shuni yodda tutish kerakki, bu huquq, boshqa narsalar qatori, umuman, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liq. Aksariyat foydalanuvchilar uchun Internet o'zini namoyon qilish va integratsiyalashuv vositasidir. Internetdan foydalanib, har kim turli huquqlardan foydalanishi mumkin. Shuni ham ta'kidlash

kerakki, xorijiy fanda Internetga kirish huquqini insonning asosiy (konstitutsiyaviy) huquqi sifatida tan olish imkoniyati asoslab berilgan.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, Internet vositalaridan o'rin olgan jamiki axborot va ma'lumotlarning hammasi ham real, haqqoniy emasligi ayni paytda ayon bo'lmoqda. Bundan kelib chiqib aytish mumkinki, olinayotgan dalillarning qay darajada to'g'riligini ongli ravishda mushohada etish maqsadga muvofiqdir. Shundagina Internet orqali egallayotgan bilimlarimiz hayotimizda ijobiy samara berishiga ishonch hosil qilish mumkin.

Keyingi yillarda ushbu muammolarni hal qilishga qaratilgan ko'plab tadqiqotlar faqat O'zbekistonda emas, balki xorijda ham olib borilmoqda. AQSH va Buyuk Britaniya kabi mamlakatlarda mazkur kiber tahdidlarga qarshi qaratilgan va ularni oldini olishga mo'ljallangan maxsus ta'lim dasturlari qabul qilinmoqda. «Kiber tahdid» istilohi ijtimoiy tarmoqlar bo'lgan vebsaytlar, tekst axborotlari, chatlar va forumlar uchun dasturiy vositalar (axborotlarni va fikrlarni ayriboshlash) va boshqa turdagi vebsaytlarni qo'llash vositasida elektron texnologiyalardan foydalanishni nazarda tutadi. Ko'p hollarda, yuqorida aytilganlardan tashqari, kiber tahdid taktikalari amaliyotida quyidagilar ham qo'llaniladi:

Alanganish – qo'rqinch, jahl, haqorat va boshqa salbiy his-tuyg'ularni keltirib chiqaruvchi xabarlar;

Ta'qib qilish – davomli ravishda haqoratli va dag'al xabarlarni to'qib chiqarib, ularni tarqatish bilan qo'rqitish;

Buhton – inson haqida unga ziyon yetqazish va uni obrusiga putur yetqazish maqsadida xabar tarqatish yoki uni nashr etish;

Taqlid qilish – o'zining kimligini yashirgan holda boshqalarning akkauntini sindirish orqali ular qiyofasini buzib ko'rsatish vositasida ularning obrui va havfsizligiga ziyon yetqazish;

Firibgarilik – kimnidir o'zi biladigan qandaydir xabardan uni ham ogoh qilishga yoki tasvirlashga majburlab, uning roziligisiz keyinchalik bu xabarni Internet orqali tarqatib yoki tekst xabari vositasidama'lum qilish;

Chiqarib tashlamoq – qurbonlarga nisbatan to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita ularni xafa qiladigan xabarlarni yuborish va unda shuni qayd etishki, ular ijtimoiy faoliyatning qismi emaslar, yoki ularga nisbatan dushmanlik va g'azab uyg'otish yoki bo'lmasa ularni boshqalar tomonidan surib chiqarish;

Kiber suhbatlar – qurbonlarga nisbatan to'xtovsiz ravishda qo'rqituvchi xabarlarni yuborish yoki ularning hayotlari xavfsizligiga va ularning qarindoshlari va yaqinlariga nisbatan tahdid qilish.

Ko‘proq ko‘ngildagidek foyda olish jihatidan ma‘muriyat o‘quvchilarga ularga muvofiq keladigan treningni tavsiya qilishi mumkinligi, bunda ham axborot texnologiyalari manbalaridan to‘g‘ri foydalanish ko‘zda tutiladi. Agar yoshlarga tez-tez texnologiyalardan foydalanish siyosati bo‘yicha treninglar o‘tqazish tavsiya qilinsa yoki Internetdan foydalanishning xavfsizligiga doir ko‘rsatmalar bilan ta‘minlansa, o‘quvchilarning uni tushunishi osonlashadi va ular qayd etilgan protokollarga aniqroq rioya etadilar. Bundan tashqari, masalan, oldini olishning quyidagicha qo‘shimcha choralarini qabul qilish mumkin.

Kiber tahdidga duchor bo‘lgan o‘quvchilarga shuni ma‘lum qilishki, bunda ularning aybi yo‘q va ular hamma vaqt xodimlarning yordamidan bahramand bo‘lishiga umidvor bo‘lishlari mumkinki, ular bilan trening o‘tqazishlari yoki bunday hollarda nima qilishlari lozimligi yoki bo‘lmasa yashirin psixolog yoki o‘qituvchilarga murojaat qilishlari lozim;

Faol talabalar orqali yosh o‘quvchilarga foydalanish qoidalarini maxsus axborot sessiyalari orqali yetqazish, bunda shuni qayd etish lozimki, o‘quv yurtida barcha o‘quvchilarga nisbatan madaniy munosabat mavjud bo‘lib, barchaga hamma vaqt va har yerda onlayn meyorini qo‘shgan holda hurmat ko‘rsatiladi;

Kiber tahdidlarni oldini olish masalalarida tadqiqotchilar shuni tavsiya qiladilarki, internet xavfsizligi bo‘yicha treninglar o‘tqazish bilan chegaralanmaslik kerak. Negaki, ular muayyan mavzuda bir marta bo‘ladigan ma‘ruzalar kabi foydasi kam bo‘lib, yoshlar ongida hamma vaqt ham qolavermaydi. Umuman aytganda, ta‘lim-tarbiya xodimlari, siyosatchilar va ekspertlar orasida shunday keng tarqalgan tushuncha mavjudki, ta‘lim-tarbiya tizimi shunday talabalarni chiqarishi kerakki, ular asosiy o‘quv mavzularidan yaxshi xabardor bo‘lib, boshqalar bilan yaxshi ishlash qobiliyatiga ega bo‘lib, o‘zlarining kasb qilib olgan ijtimoiy va his-tuyg‘uli ko‘nikmalarini namoyish etishga, sog‘lom xulq-atvorlarini amalda qo‘llab, atrofdagilarga nisbatan ma‘suliyatli munosabat va hurmat-e‘tiborda bo‘lishlari lozim.

Keng miqyosdagi uzliksiz tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, foydali ravishda ijtimoiy va his-tuyg‘uli salohiyatga ega bo‘lish eng yaxshi o‘zlashtirishga hamroh bo‘lib, ko‘rsatilgan ko‘nikmalarga yetarlicha e‘tibor bermaslik turli xil shaxsiy, ijtimoiy va o‘quv muammolarining kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Xulosa. Yangi O‘zbekistonda internet axborot resurslaridan foydalanish madaniyatining huquqiy asoslari milliy qonunchilik va xalqaro tamoyillar uyg‘unligida shakllanmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun, “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun, “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi Qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlar internet makonida

ochiqlik, shaffoflik, axborot xavfsizligi va shaxsiy daxlsizlik muvozanatini ta'minlashga xizmat qilmoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, internetdan foydalanish madaniyati nafaqat huquqiy normalar bilan, balki axloqiy-me'yoriy tamoyillar, raqamli etik qadriyatlar va fuqarolarning ongli mas'uliyati bilan ham chambarchas bog'liqdir. Yangi O'zbekiston sharoitida internet makonini tartibga solish jarayoni demokratik tamoyillar, inson huquqlarini himoya qilish va milliy axborot xavfsizligini ta'minlash o'rtasidagi muvozanatni saqlashga yo'naltirilgan.

Xulosa qilib aytganda, internet axborot resurslaridan foydalanish madaniyatining huquqiy asoslari jamiyatda ochiq va xavfsiz axborot muhitini shakllantirish, raqamli transformatsiyani jadallashtirish hamda fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Mazkur sohada qonunchilikni takomillashtirish, raqamli savodxonlikni oshirish va huquqiy targ'ibotni kuchaytirish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Хамдамов Р., Бегимкулов У., Тайлоқов Н. Таълимда ахборот технологиялари. Олий таълим муассасалари учун. Тошкент, 2010.
2. Яхё, Муҳаммад Амин. Интернетдаги таҳдидлардан ҳимоя. Тошкент, 2016.
3. А.Т.Кенжабев, М.М.Икромов, А.Ш.Алланазаров. Ахборот-коммуникатсия технологиялари. О'quv qo'llanma. Toshkent, 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2003-y., 1-son, 2-modda; 2015-y., 52-son, 645-modda; Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992-y., 2-son, 80-modda; O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 102-modda; O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2004-y., 25-son, 287-modda; 51-son, 514-modda; 2008-y., 52-son, 513-modda
6. Rasulov, A. M. (2022). Мустақиллик йилларида оммавий ахборот воситалари эркинлиги. Scientific progress, 3(10), 4-8.
7. Nilufar, M. (2023). Formation of legal culture among young people and its importance in building a civil society. Imras, 6(7), 416-421..